

BIOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Xamrayev Maxmudjon Mamasharifovich

Namangan viloyati MMTB Kosonsoy tumani MMTB

34 -sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

Biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ekologik madaniyat, tabiiy resurslarni tejash, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish tamoyillarini o'z ichiga oladi. O'quvchilarga ekologik bilimlarni berish, ularni tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishga o'rgatish, zamonaviy ekologik muammolarni tushunishga yordam beradi. Shuningdek, dars jarayonida interaktiv metodlar va tajribalar orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: biologiya, ekologik madaniyat, o'quvchilar, atrof-muhit, tabiiy resurslar, barqaror rivojlanish, ekologik bilimlar, interaktiv metodlar.

Аннотация: экологическая культура включает в себя бережное отношение к природным ресурсам, защиту окружающей среды и принципы устойчивого развития. Обучение учащихся экологическим знаниям помогает воспитать у них ответственное отношение к природе и понять современные экологические проблемы. Кроме того, в процессе уроков представлены возможности для развития экологической культуры с помощью интерактивных методов и экспериментов.

Ключевые слова: биология, экологическая культура, учащиеся, окружающая среда, природные ресурсы, устойчивое развитие, экологические знания, интерактивные методы.

Annotation: *ecological culture encompasses the conservation of natural resources, the protection of the environment, and the principles of sustainable development. Providing students with ecological knowledge helps them develop a responsible attitude toward nature and understand contemporary ecological issues. Additionally, the teaching process offers opportunities to foster ecological culture through interactive methods and experiments.*

Key words: *biology, ecological culture, students, environment, natural resources, sustainable development, ecological knowledge, interactive methods.*

Ekologik madaniyat ijtimoiy va ma'naviy hayotda qo'lga kiritilgan jamiki yutuqlarni, o'qimishlilik, ta'lim – tarbiya ko'rganlik, ziyolilik kabi xususiyatlarni bildiradi. Ekologik madaniyat - bu insonning tabiatga bo'lgan ongli munosabati, atrof-muhitni asrash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish madaniyatidir. U inson tafakkurida shakllanadigan ekologik ong, axloqiy qarashlar va amaliy faoliyatning uyg'unligidir. Ekologik madaniyat odamlarda tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish, bilim va ko'nikmaga ega bo'lish, hamda tarbiya orttirish orqaligina erishiladi. Ekologik madaniyat qanchalik boyib borsa jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ekologik madaniyatli odam inson va tabiat ekologiyasi nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli tabiat qo'ynida o'tkazish yo'lini izlab topadi, pirovardida tabiat bilan muamola qilish madaniyatini egallaydi. Shu bilan birga tabiat ekologiyasiga insof va adolat nuqtai nazardan yondoshaoladi. Ya'ni, atrof-muhitni toza saqlash, tabiat va uning boyliklarini asrash, ulardan oqilona foydalanish uning faoliyatidan chuqur o'rin egallaydi. Albatta, bu muammolarni hal etishda talaba-yoshlarning bu borada olgan bilimlari va ularning ekologik madaniyati darajasi shakllanganligiga bog'liqdir. Chunki, kundan-kun shaharlarning kengayib borishi, o'simliklar va hayvonot olamining qisqarib borishi, transport vositalarining ortishi natijasida atmosfera tarkibidagi zaharli moddalar miqdorining ortib borishi, suv, havo va tuproq tarkibi ifloslanishi sababli inson salomatligiga, o'simliklar dunyosi va

hayvonot olamiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Chunki, kundan-kun shaharlarning kengayib borishi, o'simliklar va hayvonot olamining qisqarib borishi, transport vositalarining ortishi natijasida atmosfera tarkibidagi zaharli moddalar miqdorining ortib borishi, suv, havo va tuproq tarkibi ifloslanishi sababli inson salomatligiga, o'simliklar dunyosi va hayvonot olamiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ularni oldini olishda talaba-yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish orqali, ona-tabiatimizning tabiiy holatini avvalgidek saqlab qolish, uni asrash va tabiiy boyliklardan unumli foydalanish kabi vazifalarni amalga oshirish mumkin. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda o'qituvchilar o'z mashg'ulotlarida quyidagi ishlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir.

1. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalarini, bosqichlarini, bilim va ko'nikmalar darajasini aniqlash;
2. Ekologik tarbiyaning aniq mazmunini belgilash, inson va tabiat ekologiyasi tajribalarini umumlashtirish va ulardan foydalanish;
3. Kompleks dastur tuzish, ekologik tarbiya tamoyillari, shakl va usullari hamda ularni takomillashtirish shart-sharoitlari;
4. Samarali tadbirlarni, ko'nikmalar, odatlar, e'tiqod va tushunchalarni ishlab chiqish;
5. Ekologik tarbiyaning samaradorligini va tarbiyalanganlik darajasini, ekologik xulq-atvor darajasini, ekologik madaniyatini, ekologik yo'naltirilgan shaxsni tarkib toptirish uchun faoliyat turlarini aniqlashdan iborat.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga ekologik bilim berish, ularning tabiatga bo'lgan munosabatini shakllantirish pedagogik yondashuvni talab etadi. Ekologik tarbiya nafaqat biologiya yoki geografiya kabi an'anaviy fanlarda, balki barcha fanlar integratsiyasi asosida olib borilishi lozim. Bu orqali o'quvchi ekologiyani faqat ilmiy tushuncha sifatida emas, balki kundalik hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qila boshlaydi. Ekologik tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: Atrof-muhit to'g'risida ilmiy, tizimli va zamonaviy bilimlar berish; O'quvchilarda tabiatga nisbatan mehr, g'amxo'rlik, ehtiyotkorlik tuyg'ularini rivojlantirish; Ekologik muammolarni

aniqlash va ularga yechim topishga qiziqish uygʻotish; Amaliy ekologik faoliyatga jalb qilish (chiqindi yigʻish, daraxt ekish, kuzatuv olib borish). Turli oʻquv fanlari ekologik madaniyatni shakllantirishda katta salohiyatga ega: Biologiya fanida oʻsimlik va hayvonot olami, tabiiy muvozanat, ekologik zanjirlar, inson va biosfera oʻrtasidagi aloqalar haqida tushunchalar beriladi. Geografiya darslarida yer yuzasida sodir boʻlayotgan ekologik muammolar, iqlim oʻzgarishi, tabiiy resurslardan foydalanish masalalari muhokama qilinadi. Kimyo fanida kimyoviy moddalarning tabiatga taʼsiri, sanoat chiqindilari va ularning zarari haqida bilimlar beriladi. Texnologiya darslarida ekologik toza mahsulotlar, qayta ishlash va chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalariga eʼtibor qaratiladi. Oʻzbek tili va adabiyot fanlarida ekologik mazmundagi sheʼr, hikoya va matnlarni tahlil qilish orqali oʻquvchilarda badiiy-estetik yoʻsinda ekologik ong shakllanadi.

Biologiya darslarida ekologik madaniyatni shakllantirish usullari:

1. Interaktiv taʼlim usullari: biologiya darslarida interaktiv usullarni qoʻllash orqali oʻquvchilarni faol ishtirok etishga undash mumkin. Guruhli muhokamalar, rol oʻyinlari va loyiha asosidagi oʻqitish metodlari orqali oʻquvchilar ekologik muammolarni hal qilishda oʻz fikrlarini bildirishlari va jamoaviy ish koʻnikmalarini rivojlantirishlari mumkin.

2. Tajribalar va eksperimentlar: oʻquvchilarga biologik jarayonlarni amalda koʻrsatish, tajribalar oʻtkazish orqali ularning ekologik bilimlarini mustahkamlash mumkin. Masalan, tuproq va suvning ifloslanishi, ekotizimlar va ularning muvozanati haqida tajriba oʻtkazish orqali oʻquvchilar tabiatning nozikligini tushunishlari uchun imkoniyat yaratiladi.

3. Tabiatga sayohatlar: oʻquvchilarni tabiatga sayohatlarga olib borish, ularni haqiqiy ekologik muammolar bilan tanishtirish va tabiatni asrash masalalarida amaliy koʻnikmalar berish juda foydali. Bu sayohatlar davomida oʻquvchilar ekosistemalar, biologik xilma-xillik va atrof-muhit muhofazasi haqida koʻproq maʼlumot olishadi.

4. Ekologik loyihalar: oʻquvchilarni turli ekologik loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish, masalan, daraxt ekish, chiqindilarni toʻplash yoki suv manbalarini tozalash kabi

faoliyatlar orqali ularning ekologik madaniyatini oshirish mumkin. Bu jarayon o'quvchilarga ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

Ona tabiatga mehr-muhabbat, shaxsiy ma'suliyat, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ekologik qadriyatlarga oid bilimlar, ekologik qadriyatlarni asrashga intiluvchanlik, atrof-muhit himoyasidagi tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, atrof-muhitni asrab avaylash, o'z-o'zini himoya qilish, tabiatni muhofaza qilishda qat'iyatlik, tabiiy boyliklardan foydalanishda tejamkorlik, ozodalik va pokizalik kabi ekologik madaniyatni belgilovchi onglilik, ma'suliyatlilik, irodalilik fazilatlarini kamol topadi. Shakllangan ekologik madaniyat dunyo ma'rifat taraqqiyoti, jamiyatning yuksalishidagi eng muhim omilidir. Biologiya darslarida ekologik madaniyatni shakllantirish, o'quvchilarga tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'z navbatida, bu ularning kelajakdagi hayotida barqaror rivojlanish va atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi. Ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida innovatsion ta'lim usullarini qo'llash va amaliy tajribalarni amalga oshirish orqali biz o'sayotgan avlodning mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanishiga hissa qo'shishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Mahkamov U.I. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. –T.: “Fan”. 1995. 197 b.
2. Sayfullayev, A. (2021). UZLUKSIZ TALIM VOSITASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH TEXNOLOGIYASI. Uzluksiz talim.
3. Kushakov, A. (2022). NUROTA TOGVA TOGOLDI TEKSILIKLARI TUPROQLARINING QIYOSIY TAVSIFI. Ozbekiston zamini.
4. Sayfullayev, A. F. O. (2023). SHAHARLARNI KO'KALAMZORLASHTIRISHDA KATALPA DARAXTINING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 77-82